

PEDAGOGICAL PROBLEMS OF TRAINING ON THE BASIS OF MODERNIZATION OF EDUCATION.

Nasriddinova Yulduz Gayratjon qizi

Kokand State Pedagogical Institute, the theory of education and upbringing Preschool education 2nd stage
Master Supervisor: Associate Professor **M. Umarova.**

Introduction: The process of "modernization" in all spheres of society also applies to the educational process. In particular, the reform of the assessment of students' knowledge in accordance with modern requirements is a requirement of the times. are crucial normative documents to ensure the quality and efficiency of implementation in the process.

TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI.

**Nasriddinova Yulduz G'ayratjon qizi Qo'qon davlat pedagogika instituti, ta'lim va tarbiya nazaryasi
maktabgacha ta'lim 2 - bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent M. Umarova.**

Kirish:Jamiyatning hamma jabhalaridagi "Modernizatsiyalash" jarayoni ta'lim jarayoniga ham ta'luqlidir. Ayniqsa oquvchi-talabalarining bilimni baholashni hozirgi davr talablariga mutanosib ravishda isloh qilish davr talabidir.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ni ta'lim jarayoniga tadbiq qilishning sifat va samaradorligini ta'min etishning hal qiluvchi me'yoriy xujjatlari hisoblanadi. Ta'im-tarbiya jarayonida zaruriy darajadagi natijani olish uchun ta'limning sifat va natijalarini, samaradorligi aniqlashni takomillashtirish va yangilash davr talablaridan biridir.Mehnatni va ta'lim mazmunining tahlili uni bozor munosabatlari talablari asosida modernizatsiyalash zaruratini qo'ymoqda. Ta'limni bozor munosabatlari talablari asosida modernizatsiyalash hozirgi kunda juda muhimdir. Shunday ekan ta'lim sifati natijalarini modernizatsiyalash orqali bu muammolarni amaliy yechimini hal qilish mumkin.

Asosiy qism: Bo'lajak o'qituvchilarning kasb tayyorgarligini kuchaytirish, mutaxassislik va ixtisoslikka doir fanlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchitalabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mavzusini amaliyotda qo'llashga o'rgatish masalasiga e'tibor kuchaydi. Bu xaqda "Bo'lajak pedagog o'qituvchilarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha g'ishli muassasalarda fan asoslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga tashkil etishga tayorlash, ularni oliy o'quv yurtlarida butun o'qitish davrida kompleks ravishda amalga oshirish kerak" deb o'rinli ta'kidlab o'tgan. Bilim ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash o'quv jarayonini eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

- a) bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarini nazorat qilish;
- b) bilimlarning sifatini aniqlash;
- s) o'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash.

O'quvchilar bilimni baholashning asosiy maqsadi bilimni tekshirish orqali ulardagi nuqson va kamchiliklar sezilib, mazkur sabablar aniqlanadi, kamchiliklar bartaraf etish choralari belgilanadi. O'quvchilar fanlar mazmunini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarida baho eng asosiy hal qiluvchi o'lchov mezonini hisoblanadi. Baho qo'yish katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki u o'quvchilarni qunt bilan o'qishga majbur etadi. Agar baho o'quvchining javobiga mos qo'yilmasa ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati o'z kuchini yo'qotadi. O'quvchining fanga bo'lgan qiziqishi susayadi va ta'lim jarayonidan uzoqlashadi hamda ko'ngli soviydi. Shuning uchun baho xaqqoniy qo'yilishi va dars yakunida e'lon qilinib har bir o'quvchiga qo'yilgan baholar sharhlanishi shart.O'qituvchilar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri

aniqlash va baholash uchun o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashga oid pedagogik nazariy bilimlarini, baholashga qo'yiladigan didaktik talablarni hamda baho qo'yish mezonini yaxshi bilishlari lozim.

Xulosa: Ta'lim sifatiga baho berishda ta'lim samaradorligi tushunchasini ham e'tiborga olish talab etiladi. Ta'lim sifati va samaradorligi tushunchalarini aniqlovchi mezonlar bir-biridan qanday farq qiladi? Sifat – olingan natijaning maqsadga nisbati (yoki teskarisi), samaradorlikolangan natijaning xarajatlarga nisbati bilan baholanadi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal xarajatlar hisobida yuqori ta'lim sifatiga erishish talab etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar //Xalq ta'limi, № 2-3.- 1999. – B. 63-68.
- 2.G'ulomova N. D.Maxmudova va F.Quchqarova. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholashning ayrim masalalari. Ta'lim texnologiyalari jurnali, №1-2, 2012. 89-91-b.
- 3.Ismatullayev P. va boshq. O'lchashlar va o'lchashlar tizimini yaratilishi va rivojlanish istiqblollari. Ta'lim texnologiyalari jurnali №1-2, 2012. 21-b.